



Havoning Ifloslanishi Va Atrof-Muhit Adolati: Muammolar Va Istiqbollar

Abdiyeva Shahrizodanig

Toshkent davlat yuridik universiteti, Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti, 3-bosqich talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada havoning ifloslanishi iqlimni o'zgartirishi, o'simlik va hayvonlarning o'sishining susayishi, havoning ifloslanishi qanday kasalliklarga olib kelishi, ekologiyani asrash uchun nimalar qilishimiz lozimligi, uning muammolari va istiqbollari, havoning insonlarga qanchalik zarurligi masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Havo, havoning ifloslanishi, kelib chiqadigan kasalliklar, iqlim o'zgarishi, yashil makon, moviy osmon uchun toza havo.

Kirish

Bolaligimizdan bizga atrof-muhit va ekologiyani asrash haqida gaplar aytilib, uni asrash har birimizning buchimiz ekanligi uqtirilib kelinadi. Shunga qaramay, atrof-muhit va havoning ifloslanishi yangi sivilizatsiyalashgan dunyoning asosiy muammosi bo'lib, u so'nggi o'n yilliklarda inson salomatligi va atrof-muhitga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Havo barcha tabiiy jarayonlardan, zararli kosmik nurlardan tirik organizmlarni saqlaydi. Insonning hayot faoliyati havo muhiti bilan bevosita bog'liq. Odam - biosferaning, ya'ni Yerdagi hayotni tashkil etuvchi barcha mavjudotlarning bir qismidir. Havo nima o'zi? Havo turli gazlardan tashkil topgan aralashma — azot, kislorod, karbonat angidrid, vodorod, suv bug'lari va hokazolardir. Keyingi yillarda havoning tarkibida karbonat angidrid miqdori ancha ko'paydi. Bu hol sayyoramiz uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, shundan iqlim o'zgarishi o'simliklardagi hayotiy jarayonlar, ya'ni ularning hosildorligi kabilarda ko'rish mumkin. Havoda ekologik muvozanat buzilishining asosiy sababi uning ifloslanishidir. Fanning aniqlashiga ko'ra, havoning tarkibi 50 mln.

Yildan ko'proq vaqt barqaror bo'lib keldi. Yer yuzini o'rab olgan havoning vazni 5000 trillion tonnage boradi; Yer kurrasidagi har bir jon boshiga 2,5 mln.t. havo to'g'ri keladi. Ekologik muvozanat buzilishi natijasida, keyingi 100 yil davomida 245 mln.t. yo'qotildi, uning o'rniga esa 360 mlrd.t. karbonat angidrid hosil bo'ldi. Bugungi kunda sayyoramiz bo'yicha olimlarning hisob-kitobiga ko'ra, har yili atmosferaga 250 mln.t. azotoksidlari (NO₂), 300 mln.t. sulfitangidrid (SO₂) va juda ko'p miqdorda karbonat angidrid (K₂O) og'ir va suyuq havoda muallaq holdagi zarrachalar, shuningdek, million tonnalab boshqa kimyoviy moddalar chiqarilmoqda. Markaziy Osiyo hududlarida keyingi 20 yil ichida Orol dengizi qurishi munosabati bilan atmosfera ifloslanishing yangi manbayi, ya'ni chang-tuz to'zoni kelib chiqdi. Respublikaning shahar va qishloqlaridagi atmosfera havosining tarkibi bir xil emas. Qishloq, cho'l, adir, tog'li joylarda uning tarkibi shaharlardagiga nisbatan tabiiy holga yaqin. Shaharlar havosi esa zaharli moddalar bilan ifloslangan. Vulqon otilishi, zilzilalar, chang bo'ronlari va yerga tushgan meteoritlar-bularning barchasi iqlim o'zgarishi va havoning ifloslanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan tabiiy hodisalardir. Bundan tashqari insonlar tomonidan ham bir qancha omillarning mavjudligi atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa, avtomobillar, kimyo zavodlari, yoqilg'i-energetika komplekslari, qishloq xo'jaligi va sanoat korxonalaridan chiqayotgan har xil gazlar havoning ifloslanishiga o'z hissasini qo'shamoqda. Bu o'z-

o'zidan havoda mis, simob, qo'rg'oshin va boshqa metallarning paydo bo'lishiga olib keladi. Havoning ifloslanishi atmosferaning ifloslanishiga va ekotizimning yomonlashishiga yordam beradigan manbalarning halokatli ta'siri sifatida tavsiflanadi. Havoning ifloslanishi inson aralashuvi va tabiiy hodisalar tufayli yuzaga keladi. U ko'plab ifloslantiruvchi moddalardan, shu jumladan qattiq, suyuq va gaz fazalaridagi materiallardan iborat. Havoning ifloslanishi insonlarning salomatligiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatib bir qancha kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda, xususan, nafas olish va yurak-qon tomir kasalliklari, neyropsixik asoratlar, teri kasalliklari va saraton kabi uzoq muddatli surunkali kasalliklar kelib chiqmoqda. Havoning ifloslanishi astma, o'pka saratoni, qorincha gipertrofiysi, psixologik asoratlar, autizm, retinopatiya, homila o'sishi va kam vaznlik, hattobepushtlik kasalligikabi ba'zi kasalliklarning tarqalishi va rivojlanishida asosiy ekologik xavf omili hisoblanadi. Internet ma'lumotlariga ko'ra, haryiliyetti million kishi havo ifloslanishi ta'siridan vafot etadi.

Gaz ifloslanishidan kelib chiqadigan kasalliklarni davolash uchun yiliga taxminan 1 trillion dollar sarflanadi. Havoning ifloslanishi nafaqat aholi salomatligi, balki atrof-muhit uchun ham jiddiy tahdiddir. U okeanlarimizdagи kislород miqdorini kamaytiradi, biologik xilma-xillikni kamaytiradi va iqlim o'zgarishiga hissa qo'shamdi. UNEP ma'lumotlariga ko'ra, havo ifloslanishiga quyidagilar sabab bo'ladi: qishloq xo'jaligi, transport, sanoat, chiqindilar va uy xo'jaliklari. Insonlarning kundalik faoliyatida ham havoning ifloslanishiga ta'sir etuvchi omillar mavjud. Ko'pgina mamlakatlarda va o'zimiz ham buni guvohi bo'lishimiz mumkinki, kuz faslida daraxtlardan to'kiladigan barglarni odamlar ko'chalarda yoki o'z hovlilarida yoqib, atrofga zaharli moddalar tarqalishiga sababchi bo'lmoqdalar. Shu tutundan chiqayotgan zaharli moddalar nafas olish yo'llariga salbiy ta'sir ko'rsatishi barchaga ma'lum. Inson 1 sutka davomida 20 ming litr havo yutar ekan. Amerika va avstraliyalik olimlar guruhi Yer sayyorasida eng toza havo qayerda ekanligini aniqladi. Tadqiqot natijalari Proceedings of the Natural Academy of Sciences (PNAS) jurnalida chop etilgan.

Yerda inson faoliyati sabab jabr ko'rмаган joylar deyarli qolmagan. Tadqiqotchilar sayyoradagi eng toza havo faqatgina Janubiy okean uzra — Antarktidani o'rab turuvchi Tinch, Atlantika va Hind okeanlari suvlari yaqinida bo'lishi mumkinligini taxmin qildi. Olimlarning fikricha, bu yerdagi havo inson ta'siri va mintaqalar changidan eng kam zarar ko'rgan. Ular o'z maqolasida ushbu hududni haqiqatda qo'l yetmagan joy deb atagan. Mutaxassislar guruhi kema yordamida Tasmaniyanidan Arktika muzliklarining janubiy qismiga qadar harakatlanib, o'z yo'llarida havo namunalarini yig'di. Tadqiqot natijalariga ko'ra, olimlarning taxmini tasdiqlangan. «Aftidan Antarktida janubiy mintaqalardagi mikroorganizmlarning tarqalishidan izolyatsiyalangan. Bu Janubiy okean inson ta'siri minimal darajada yetib borgan Yerdagi kam sonli hududlardan biri ekanligini ko'rsatadi», — deydi tadqiqot mualliflaridan biri Tomas Hill.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti bugungi kunda bu masalaga e'tibor qaratmoqda, chunki havo ifloslanishining sog'liqqa ta'siri haqida dalillar ko'p. So'nggi yillarda havoning ifloslanishi diabet xavfini oshirishi, intellektning pasayishiga olib kelishi aniqlandi. Ayniqlasa, yosh bolalarning salomatligi e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Ma'lumotlarga qaraganda, bir milliardga yaqin bolalar - dunyodagi 2,2 milliard bolalarning deyarli yarmi 33 mamlakatda "juda yuqori xavf ostida" yashaydi. Ular orasida asosan Afrika davlatlari, shuningdek, Afg'oniston, Hindiston, Pokiston va Myanma kabi davlatlar bor. Bu bolalar ko'plab iqlim va ekologik zarbalar tahdidiga duch kelishadi. Hisobotda aytishicha, qирғоq bo'yи hududlaridagi 240 million bola dengiz va okeanlarning ko'tarilishi bilan bog'liq SUV toshqinidan zarar ko'rishi mumkin, agar ular daryo qирғоqlaridan toshib ketsa, yana 330 million bola xuddi shunday xavfga duch keladi. 400 million bola sikkonlar xavfi ostida. Taxminan 600 million voyaga yetmaganlar yuqumli kasalliklarga chalinish xavfi ostida. Bir milliarddan ortiq bola normadan yuqori ifloslangan havodan nafas oladi. 820 million o'g'il-qiz haddan tashqari issiqlik va SUV tanqisligidan zarar ko'rmoqda.

Bugun insoniyat global iqlim o'zgarishlari kabi muammolar bilan ro'baro' turibdi. Insoniyatning tabiat qonuniyatlariga amal qilmasligi, tabiiy resurslardan beayov foydalanishi, Yer yuzida ishlab chiqarish sur'atlarining keskin ortishi, transport vositalarining ko'payishi va boshqa ko'plab texnogen va antropogen ta'sirlar natijasida atmosferaga chiqarilayotgan karbonad angidrid, metan va azotning chala

oksidi kabi issiqxona gazlari quyosh energiyasining Yer sathida jamlanib qolishiga, bu esa, o'z navbatida, dunyo ob-havosining me'yoriy darajasidan oshib ketishiga sabab bo'lmoqda. Haroratning keskin oshishi kelajakda dengiz sathi ko'tarilishiga, qishloq xo'jaligi yerlarini suv bosishiga, chuchuk suv manbalarining sho'rланishiga, tabiiy ofatlarning ortishiga olib keladi. Bundan tashqari, iqlim mintaqalarining qutblarga qarab ko'chishi natijasida quruqlik yuzasining katta qismida tuproq namligi kamayib ketadi. Yozgi qurg'oqchilikning ortishi oqibatida o'simliklar hosili 10-30 foizgacha kamayishi mumkin. Havoning ifloslanishiga global isish va iqlim o'zgarishi ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Global isish bilan bir qatorda, iqlim o'zgarishi muammosi qatoriga yog'ingarchiliklarning bir maromda emasligi, gohida quruqchilik bo'lishi, gohida esa birdan yog'ingarchiliklarning ko'payib hududlarni suv bosishi ham kiradi. Aslida iqlim o'zgarishlarining sababi nimada?

Olimlarning ta'kidlashicha, yaqin 25–30 yil ichida iqlim yanada issiqlashadi va ob-havo sharoiti keskinlashadi. Marjon qoyalari va boshqa zaif yashash joylari allaqachon yo'q bo'lib keta boshlaydi. Atmosferaga issiqxona gazlari chiqindilari nazoratsiz ravishda tarqalishda davom etsa, olimlar buning uzoq muddatli jiddiy oqibatlarga olib kelishidan qo'rqishmoqda: ya'ni, dunyo tartibining buzilishi, keng ko'lamli migratsiya, Yer tarixidagi o'simliklar va hayvonlarning oltinchi ommaviy yo'q bo'lib ketishining tezlashishi, muzliklar erishi, dengiz sathining ko'tarilishi va dunyoning qirg'oqbo'yi shaharlarining ko'p qismini suv bosishi kabi oqibatlardir. Ushbu xavflarni keltirib chiqaradigan gazlar hozirdan o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Jahon sog'lijni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, atrof-muhitning ifloslanishi oqibatida kelib chiqadigan kasalliklar tufayli har yili sayyoramizda kamida besh yarim million kishi vafot etadi. 2050 yilda bu raqam 6 million kishidan ortib ketishi aytilmoqda. Shundan teng yarmi Hindiston va Xitoy hissasiga to'g'ri keladi. Iflos havo oqibatida 2013 yilda Xitoyda 1 million 600 ming, Hindistonda bir yarim millionga yaqin, AQSH va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 300 mingga yaqin kishi vafot etgani aytildi.

Qiziq faktlardan biri, asalari uyasining ichidagi havo biz nafas oladigan havodan ko'ra, tozaroq va musafforoq ekan. Asalari uyasining dezinfektsiya darajasi jarrohlik amaliyoti xonasidagi dezinfektsiya darajasiga teng ekan. Agar jarrohlik amaliyotidagi xonasidagi dezinfektsiya turli kimyoviy moddalar vositasida amalga oshirilsa, asalari uyasining ichidagi dezinfektsiya Allohnning fazli bilan tabiiy ravishda hosil bo'lar ekan. Asalari uyasi (yashik) ichidagi havo bilan davolanish — nafas olish a'zolarining, jumladan, bronxlarning kengayishiga, o'pkaning faoliyati yaxshilanishiga, allergiya, astma kasalliklari va revmatizmdanxalos bo'lishga sabab bo'lar ekan.

"Greenpeace" mustaqil xalqaro nodavlat ekologik tashkiloti ekspertlari eng toza havo bor mamlakatlarni e'lon qildi. Reytingga ko'ra, Finlyandiya dunyodagi eng toza havoli mamlakat deb topilgan. Ushbu ro'yxatda ikkinchi o'rinni Ispaniya egalladi. Kuchli uchlik Estoniya davlati bilan yakunladi. Qayd etilishicha, reytingda to'rtinchi va beshinchi o'rirlarni Shvetsiya va Avstraliya band etgan. Shuningdek, "Greenpeace" mutaxassislari ma'lumotlariga asosan, dunyodagi eng iflos havo Pokiston, Hindiston, Bangladesh, Afg'oniston, Bahrayn, Mo'g'uliston va Quvaytda ekanligi ma'lum qilingan. Shveysariyaning havoni tozalash tizimlarini ishlab chiqaruvchi IQAir kompaniyasining 2021 yil yakunlari bo'yicha taqdim qilgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston dunyoning ifloslanish darajasi yuqori bo'lgan davlatlari qatorida 8-o'rinni egallagan. Biroq 2022 yil 17 oktyabr` kunida O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston, ya'ni Toshkent shahri dunyoning ifloslanish darajasi yuqori bo'lgan davlatlari qatorida 1-o'rinni egalladi. Toshkent havosida mayda PM-2,5 dispers zarralarining kontsentratsiyasi 212 mkg/m³ni tashkil etgan – bu "juda zararli" tasnidagi ko'rsatkich bo'lib, Jahon sog'lijni saqlash tashkiloti belgilagan me'yordan 42,4 barobarga ko'pdir.

JSSTga ko'ra, havo ifloslanishi ko'rsatkichlari orasida salomatlik uchun eng katta xavf tug'diradigani aynan PM-2,5 dispers zarralaridir. Bunga asosiy sabab, son-sanoqsiz daraxtkesarliklar, pala-partish qurilishlar va sifatlari jamoat transporti yo'qligi sabab shaharda avtomobillar ko'payib borayotgani, iqlim o'zgarishi, yog'ingarchilik deyarli bo'limgani kuzatilgan. Ayrim davlatlarda hattoki, yog'ingarchilik kamligi tufayli sun'iy yomg'irlar yog'dirilib, shu yo'l bilan havo tozalanib turiladi.

Istiqbollariga to'xtaladigan bo'lsak, 7-sentabr "Moviy osmon uchun toza havo" kuni sifatida nishonlanadi. Moviy osmon uchun Xalqaro toza havo kunida BMT hukumatlarni zararli gazlar va

boshqa ifoslantiruvchi moddalarni kamaytirishga chaqirmoqda. Respublikamiz miqyosida ham har yili ikki bosqichda "Toza havo" oyligi o'tkazilib kelinadi. Avtomobil dvigatellaridan ajralib chiqayotgan gazlarning miqdori va zararlilik darajasi monitoringi bo'yicha «Toza havo» operatsiyasi O'zbekiston Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Davlat sanitariya epidemiologiya nazorati markazi bilan hamkorlikda o'tkaziladi.

«Toza havo» oyligi davomida minglab avtotranspor tvositosi ko'rikdan o'tkaziladi. Shu kungacha ko'rikdan o'tgan minglab avtotransportning o'ndan ortig'ida atmosfera havosiga zararli tashlama tashlash me'yordan ortiqligi aniqlanib, haydovchilar belgilangan tartibda ogohlantiriladi. Operatsiya vaqtida asosiy e'tibor atmosferaga 70% uglerodoksidi (SO) va 13% uglevodorodlar (SR)ni chiqarayotgan karbyurator dvigatelli hamda dizelli avtomobillarga qaratiladi. Atmosfera havosiga belgilangan me'yor darajasidan yuqori zararli tashlama tashlovchi transport vositalarini aniqlash hamda haydovchilarga uning oqibatlarini tushuntirish, transport vositalaridan chiqayotgan zararli gazlar miqdorini me'yor darajasiga keltirib, atmosfera havosiga bo'ladiyan zararli ta'sirlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar tashkil etilmoqda.

O'tgan yili O'zbekistonda 7000 atrofidagi avtotransport vositalari gaz yonilg'isiga o'tkazilib, atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar miqdori 8000 tonnadan ziyodroqqa qisqarishiga erishildi. Ma'lumotlarga ko'ra, Surxondaryo viloyatida atmosfera havosiga jami tashlanadigan tashlamalarning 95 foizi harakatlanayotgan transport vositalaridan hosil bo'ladi. Yana bir loyihalardan biri bu "Yashil makon" umummilliyl dasturi hisoblanadi. "Yashil makon" umummilliyl loyihasi doirasiga ko'ra, yiliga 200 million tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni amaldagi 8 foizdan 30 foizga oshirish rejalashtirilgan.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida olib borilayotgan ko'lamli yumushlar xususida ham xuddi shunday mulohaza yuritish mumkin. Hududlar kesimida oladigan bo'lsak, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent viloyatida – 16 million tupdan, Andijon, Buxoro, Namangan, Farg'onada – 15 million tupdan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Sirdaryo, Xorazmda – 14 million tupdan ko'chat ekilishi rejalashtirilgan. Rasmiylar amalga oshirishi mumkin bo'lgan aniq harakatlar havo sifati va iqlim o'zgarishi bo'yicha keng qamrovli siyosatni amalga oshirishni o'z ichiga oladi; benzin va dizel yoqilg'isi bilan ishlaydigan avtomobillarni rad etib, elektromobillardan foydalanishni maqsadga muvofiq hisoblamoqdalar.

Elektromobillar tungi vaqtida elektr tarmog'idan quvvatlanadi va atrof-muhitni ifoslantirmaydi, kunduzi shahar bo'ylab harakatlanadi. Ular yonuvchi dvigatelli transport vositalariga qaraganda ancha samaralidir va hatto qayta zaryadlash uchun zarur bo'lgan elektr energiyasi ko'mir yoqishdan kelib chiqqan taqdirda ham taraqqiyotga xizmat qiladi. Albatta, elektr transport vositalari toza energiya bilan zaryadlangandagina bebaho bo'ladi. Elektrotexnika sanoati shu qadar tez rivojlanmoqdaki, ba'zi mamlakatlar 2030 yildan boshlab ichki yonuv dvigatelli avtomobillarni sotishni taqilashni muhokama qilmoqda. Kundalik hayotda ham elektr energiyasidan oqilona foydalanish mumkin: buning uchun inttelektual termostat o'rnatish lozim, yorug'lik lampalarini energiyani tejaydigan lampalar bilan almashtirish, xonadan chiqayotganda chiroqlarni o'chirish va hokazolar.

Bundan tashqari, boshqa odamlarga qo'shilib, jamoat transportidan foydalanish orqali ham qisqaroq masofalarga yetib borishimiz va shu bilan mashinadan chiqadigan zararni kamaytirishimiz mumkin. Mutaxassislarining fikricha, chiqindilar sektori va sanoat chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan choratadbirlar ham muhim ahamiyatga ega. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ekspertlari, shifokorlari va ekologlari har birimiz o'z xatti-harakatlarimizni o'zgartirsak, ko'p narsaga erishish mumkinligiga aminlar. Jamoat transportidan foydalanish, velosiped haydash, maishiy chiqindilarni kamaytirish, go'shtni kamroq iste'mol qilish, energiyani tejash va yashil maydonlarni kengaytirish kabi oddiy harakatlar atmosferaga zararli gazlar chiqarilishining kamayishiga olib keladi.

Mamlakatimizda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonuni atrof-muhit ifoslanshining oldini olishda muhim huquqiy asos bolib xizmat qilmoqda. Jumladan, mazkur qonunning 1-moddasida atmosfera havosi tabiiy resurslar tarkibiga

kiritilgani va davlat tomonidan muhofaza qilinishi alohida belgilab qo'yilgan. Bu sohada, xususan, O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi, «Elektron hukumat to'g'risida»gi, «Radiochastota spektri to'g'risida»gi hamda boshqa qonunlardan keng foydalanilyapti. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning 2017 yil 21 apreldagi «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni va boshqa sohaga doir hujjatlar qabul qilingan. Xorijiy mamlakatlarda ekologiyaga oid bir qancha hujjatlar bilan bir qatorda «Ekologiya kodeksi» ham mayjud bo'lib, ushbu sohani tartibga soladi. O'zbekistonda ham ushbu kodeksni amalda joriy qilish rejalashtirilgan.

Hududlarda, ayniqsa shahar joylarida daraxtzorlarni yanada ko`paytirish, daraxtlarning asossiz kesilishiga yo'l qo`ymaslik kerak. Barcha mehnat jamoalari, turar joylarda shunday axloq normalarini yaratish kerakki, bunda atmosfera havosini saqlash muhim ekanligini har bir kishi his etmog'i lozim. Ana shunda bizning tabiat, havo o'z tozaligini saqlaydi hamda hozirgi va kelajak avlodlarni quvnoq, farovon yashashi uchun xizmat qiladi. Zotan, tabiiy boyliklarimizga ehtiyyotkorona munosabatda bo`lsak, suv, gaz, elektr energiyasining ortiqcha sarfiga yo'l qo`ymasak, o`zimiz yashayotgan hudud, hovli yoki ko`chaning toza va ozodaligiga e'tibor qaratsak, nur ustiga a'lo nur bo`ladi.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Бадмаева С.Э., Циммерман В.И. Антропогенное загрязнение атмосферного воздуха городов Красноярского края // Вестник КрасГАУ. 2015. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/antropogennoe-zagryaznenie-atmosfernogo-vozduha-gorodov-krasnoyarskogo-kraya>
2. https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=air+pollution+and+human+health&oq=air+pollution+and+d=gs_qabs&t=1667960127861&u=%23p%3DR8G4r0WE9hEJ
3. Gulyamov Said Saidakhrarovich, Khazratkulov Odilbek Tursunovich, & Eshbayev Gayrat Bolibek ubli. (2022). DIGITAL FUTURE & CYBER SECURITY NECESSITY. World Bulletin of Management and Law, 10, 31-45. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/948>
4. Turdialiev, M. A. (2022). THE LEGAL ISSUES OF METAVERSE AND PERSPECTIVES OF ESTABLISHMENT OF INTERNATIONAL FINANCIAL CENTER IN METAVERSE. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(8), 239-249.
5. Kinza Fatima, & Mukhammad Ali Turdialiye. (2022). UNDERSTANDING THE SOCIAL CHANGE AND DEVELOPMENT IN THE “THIRD WORLD”: A BOOK OVERVIEW. *World Bulletin of Management and Law*, 6, 1-2. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/439>
6. Ammar Younas, & Turdialiev Mukhammad Ali Polatjon Ogli. (2021). Special Features Of International Financial Centres And Its Establishment In Uzbekistan . *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 3(08), 17–21. <https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume03Issue08-04>
7. Юнас А., Каландаров А., & Турдиалиев М. А. (2022). Правовой прогресс законодательства об электронной торговле в Центральной Азии в период COVID-19. *Общество и инновации*, 2(6), 170–176. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss6-pp170-176>
8. Turdialiev, M. A. (2021). REGULATION OF MNES BY DOMESTIC AND INTERNATIONAL POLICIES. *Збірник наукових праць SCIENTIA*.
9. Younas, A. ., & ogli, T. M. A. P. . (2021). Multinational Enterprises in Global Market Economy. *International Journal of Development and Public Policy*, 1(7), 137–143. Retrieved from <https://www.openaccessjournals.eu/index.php/ijdpp/article/view/820>
10. Турдиалиев, М. А. (2020). Эркин иқтисодий зоналар доирасида инглиз хукукини жорий этишнинг хориж ва миллий тажрибаси. *Юрист Ахборотномаси*, 1(6), 151-158.

11. Turdialiev, M. A., & Komilov, B. (2020). The Legal Issues Of International Investment Activity In Uzbekistan: Critical Analysis And Legal Solutions. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2(12), 16-21.
12. Polatjonogli, T. M. A., & Abdulajonovich, S. M. (2022). HUNTING A SUITABLE TYPE OF LEGAL ENTITYFOR CENTRAL ASIAN BUSINESSMEN IN CHINA. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(1), 75-77.
13. Akramov, A., Mirzaramov, B., Akhtamova, Y., & Turdaliyev, M. A. (2021). Prospects For The Development Of Trust Management In Uzbekistan. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(4).
14. Narziev, O. (2021). The Perspectives Of The Establishment Of International Financial Centers In Uzbekistan And The Implementation Of English Law. *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT)*, 12(4), 1104-1108.
15. https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=air+pollution+and+human+health&oq=air+pollution+and+d=gs_qabs&t=1667959444621&u=%23p%3DH_KeI6ocJW0J
16. [https://www.unep.org/ru/novosti-i-istorii/story/zagryaznenie-vozdukha-i-izmenenie-klimata-dve storony-odnoy-medali](https://www.unep.org/ru/novosti-i-istorii/story/zagryaznenie-vozdukha-i-izmenenie-klimata-dves storony-odnoy-medali)
17. <https://news.un.org/ru/story/2021/09/1409462>
18. <https://tion.ru/blog/zagryaznenie-okruzhayushchej-sredy/>